

## SHAHRISABZ SHAHRIDAGI YODGORLIKLAR

Jalilova Sarvinoz Sarvar Qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti, Tarix yo'nalishi 102-guruh talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola 2700yillik tarixga ega Temuriylar davrining eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan Shahrisabz shahridagi yodgorliklarning qurilishi, va ularning o'ziga xos uslublari haqida ma'lumotlarni yoritib beradi. Shahrisabz – O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, boy me'moriy merosi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Amir Temur davrida qurilgan inshootlarning me'moriy o'ziga xosliklari, ularning tarixiy va madaniy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yodgorliklarning bugungi kundagi holati va ularni asrab-avaylash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Gonzales de Klavixo, Bobur, Abdullaxo II, Sharofuddin al Yazdiy, Dor us-saodat, Xazrati Imom, Jahongir, Muhammad Sulton, Dor ut-tilovat, Shamsiddin Kulol, Masson, Ulug'bek, Muhammad Tarag'ay.

Shahrisabz shimolda Kitob, g'arbda Chiroqchi, sharqda Yakkabog', shimoli- sharqda esa Surxondaryo bilan chegaradosh. Shahrisabz maydoni 1,66 kv.km. Uning sharqiy qismi tog'like g'arbi tekislikdan iborat.

Shahrisabz- O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, 2700yillik tarixga ega va u Qashqadaryo viloyatida joylashgan. Bu azim shaharda nafaqat O'rta Osiyo balki butun dunyoga mohir sarkarda, davlat arbobi, siyosatshunos sifatida mashhur bo'lgan Amir Temur tavallud topgan. Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabz ulkan saltanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylangan. Bu davrda madaniy, iqtisodiy va siyosiy markaz vazifasini bajargan. 2000-yilda YuNESKO Jahon merosi ro'yhatiga kiritilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida bu yerda ko'plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

OQSAROY. Taxtaqoracha dovonining cho'qqisidan turib qarasangiz, Shahrisabz va atrofidagi joylar bepayon va kaftdek tep-tekis qirda chayqalib turgan yam-yashil bir dengizdek bo'lib ko'rinadi. Ana shu dengiz ustida azim Oqsaroy harobalari zumrad to'lqinini yorib chiqqandek, osmonga bo'y cho'zib turadi.

Oqsaroyning qurilishi Amir Temurning Xorazmga qilgan yurishi bilan bog'langan. Temur tug'ilgan shahriga alohida mehr qo'ygan va uning mamlakatning diniy va siyosiy markaziga aylantirishga uringan. Temur o'z odati bo'yicha har bir yurishini nishonlash uchun qandaydir inshoot barpo qilar e .di. 1379-yilning kuzida Urganch shahrini bosib olgach, Temur xorazmdan ko'plab olim, hunarmand va turli ixtisosga oid mutaxassislarni Shahrisabzga ko'chirishga farmon beradi. Oqsaroyni asosan xorazmlik va Eronlik me'morlar qurgan. 1380-yilning bahorida Oqsaroyni qurishga kirishildi.

Oqsaroyni Amir Temur onasiga Takinaxotunga atab qurdirgan degan ma'lumotlar ham uchraydi. Mashhur ispan sayohi Gonzales de Klavixo 1404-yil 29-avgustda shu saroyni ko'zdan kechirgan vaqtida ham saroy hali bitkazilmagan edi. U 20 yildan ortiq vaqt davomida qurilgan.

Oqsaroyini qurish ishlari juda kata mahorat va mehnat talab qilgan. Bu davrda qurilgan yodgorliklar orasida alohida ajralib turgan. O'sha davr olimlarining yozishicha, saroy atrofida qurilga uy-joylar, jamoa binolari kompleksi keng sahnli hovliga mos bo'lib tushgan.

Boburning yozishicha, hovlida kata gumbazli xona bo'lib, unda devon majlisi chaqirilar, atrofidagi kichik xonalarda maslahatchi tovojbeklar bilan devon beklarining yig'ilishi o'tkazilgan.

Saroy qabulxonasi arkining kirish qismida sher va quyosh, shu bilan birgalik Temur davlatining ramzi bo'lmish uchta halqa shakli tasvirlangan. Klavixoning aytishicha, podshoning ichkari xonalari va harami nihoytda sersavlat va chiroyli qilib bezatilgan. Saroy ajoyibotlari orasida tom ustida qurilgan hovuz bo'lib, unga Taxtaqoracha dovonidagi qo'rg'oshin tarnovdan suv oqib tushgan. Ulug'vor me'morchilik inshoatidan ikki peshtog'i saqlanib qolgan, xolos.

Bundan 250 yil muqaddam qulab tushgan Oqsaroyning peshtog'i chindan ham O'rta Osiyoda eng yirik bo'lgan. Ravog'i 22,5 metr bo'lgan. Pilanlarning balandligi, hatto hozir haroba bo'lgandan keyingi ko'rinishda ham 38 metrdan: peshtoqning kengligi 40 metr, peshtoqning to'la balandligi esa 50 metrdan ortiq, ya'ni hozirgi 18 qavatli binoga teng keladi. Saroyning ichki va tashqi devorlarida feruza rangli kufiy yozuvlar, zeynatli bezaklar, girih uslubidagi islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Oqsaroy devorlaridagi ranglar jilosi, falsafiy va diniy mavzudagi, kufiy, suls yozuvlari, koshinkor bezaklari, girih naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag'ishlaydi. Ranglarni oy yorug'ida jilovlanib, oqarib ko'rinishidan Oqsaroy deb nomlangan. Afsonalarga ko'ra, ulkan Oqsaroyini vayron qilgan kishi Abdullaxon II bo'lgan. Bizgacha uning ikki devori saqlanib qolgan xolos. Lekin saroyning shu kichik bo'laklari ham butun ansamblning ajoyib qiyofasi bir zamonlar nechog'lik ulug'vor, hashamatli bo'lganini juda ma'nodor qilib ko'rsatib turibdi. Oqsaroy XIV-XV asrlardagi O'rta Osiyoning eng yaxshi durdonaridan biri sanaladi.

Dor us-saodat kompleksining qoldiqlari. Jahongir maqbarasi va Temurning yerostidagi sag'anasi. Temuriylar saroyining mashhur tarixchisi Sharofiddin al-Yazdiyning yozishicha, Temurning kata o'g'li Jahongir 20 yoshida vafot etgan. Shahzodaning jasaki butun temur saroyining katta motam marosimidan keyin Shahrisabzga olib kelinib, dafn qilingan.

Bir necha yildan keyin marhum shahzoda sharafiga xorazmlik me'morlar ajib salobatli maqbara bunyod qildilar. U keyinchalik butun Dor us-saodat kompleksiga asos bo'lib qoldi.

Jahongir maqbarasining yon-atrofiga juda katta hashamatli bino solindi. Buning natijasida ilgari Jahongir maqbarasi shu Dor us-saodat kompleksining kirish peshtoqidagi planlaridan birining tarkibiga kirib qoldi. Temur ham shu joyda o'ziga yerosti sag'anasini qurdirdi.

Biroq, zamonaning zayli bilan Temur Dor us-saodatga qo'yilmay, nabirasi Muhammad Sultonga atalgan maqbaraga dafn etiladi. Samarqanddagi maqbara ana shundan keyin Go'ri Amir nomi bilan mashhur bo'lib qoladi. Natijada Dor us-saodatdagi sag'analar qurilishi oxiriga yetkazilmay qoladi. Umarshayx Mirzoning ham qabri shu yerda joylashgan degan fikrlar mavjud. Sababi, mazkur hududdan uncha uzoq bo'lmagan masofada Umarshayxning o'g'li Said Ahmad Mirzo qabr sag'anasi topilgan. Dor us-saodat

ulkan bin edi. Uning bo'yi qariyb 70 metr, eni esa 50 metr edi. Asosiy- g'arbiy fasadning peshtog'i ark ravog'i bilan 20 metr bo'lib, uning planlaridan birida gumbazi qubbador uchli "Xazrati Imom" maqbarasi joylashgan. Maqbaradan deyarli 40 metr narida, Temurning yerosti sag'anasi joy olgan. Katta saroy xonasining muyulishidan yo'lakka o'xshash xonalar ketib, ular turli vazifalarga mo'ljallangan yon xonalarga olib boraradi. Bu yerda ovqatxona, turli-tuman ziyofat taomlari tayyorlanadigan oshxona, masjid, kutubxona, kelgan mehmonlar turadigan hujralar va xudoyorxona bor edi.

Maqbara o'rnatilgan xonaning ichi to'rtburchak bo'lib, gir atrofida yuza ravoqli tokchalar o'yilgan. Hozirgi kungacha uning uch fasadi rango-rang koshin qoplami salovatini saqlagan sharqiy ravoqdor tokchalar va qo'shni xonadagi zarnigor qubbali har xil girihlar, guldor marmar taxtalar, chiroyini hali yo'qotganicha yo'q. Dastlabki qarashda baland qilib qurilgan maqbara bilan, yerosti sag'anasining bir-biriga bog'lash juda mushkul. Lekin qadimda ularning xar ikkisi ham yagona ulkan, mahoratli Dor us-saodat me'morchilik koshonasining ajralmas bir tarkibiy qismi bo'lgan. Dor us-saodat kompleksi Temurning fikricha, temuriylar xonadonining ayonlari dafn etiladigan ulkan dahma bo'lishi kerak edi, ammo u o'ylaganicha bo'lmadi.

Temurning yerosti sag'anasi to'rtburchakli kichik xonada bo'lib, butun yuzasi yalpisiga marmar tusli tarashlangan yassi ganch taxtalar bilan qoplangan. Yassi gumbazning eng o'rtasida san'atkorona mohirlik bilan sakkiz qirrali nafis gultoij ishlangan. Yerosti sag'anasining janubiy ravog'iga g'arbdan kiriladigan an'anaviy  $\Gamma$ -simon yo'lak olib boradi.

Mutaxassislardan Ya.G'ulomov enteryerdagi bitiklar bilan hali 1933-yildayoq tanishib chiqqan edi. Keyinchali, 1942-yilda yodgorlik M.Masson va G.Pugachenkovalarning tadqiqotiga aylangan, jumladan, ular shunday yozgan edi: "Daxma bir kishi dafn etish uchun mo'ljallangan, o'zining qat'iy tusdagi ko'rkamligi va g'ayriodatiy hashamdorligi bilan kishini lol qoldiradi. Devoriy bitiklar suls xatining turli uslublarida yozilgan va Qur'oni karimdan olingan iqtiboslarni o'zida ifoda etadi. Bitik daxmaning g'arbiy ravog'idan boshlangan va boshqa ravoqlarda ham davom etadi. "Fotiha", "Mulk" suralari va "Baqara" surasining 225-oyati- "Oyat ul-Kurs", shuningdek, marhumlar haqiga o'qiladigan mashhur duolar, Qunut duosi, Allohning go'zal ismlari identifikatsiya qilingan.

Bunday ulkan qurilish inshoatining vujudga keltirilishi, usha davr me'morlarning qurilish ishlarini rivojlantirishda ancha yuksak sur'atga erishganliklaridan dalolat berib turibdi. Murakkab injenerlik nuqtayi-nazari bilan hal etilib, xush qomat, naqshinkor qilib bezatilgan ulkan bino XVI asrning o'rtalarida, Abdullaxon IIning Shahrisabzga qilgan yurishlaridan birida vayron etildi.

Hazrati shayx mozori oldidagi binolar kompleksi (XIV-XVII asrlar). Dor ut-tilovat madrasasi yaqinida uchta imorat saqlanib qolgan. Bular Dor us-salovatning janubiy-g'arbiy tomonida joylashgan ikkita maqbara hamda ularning ro'parasida qad ko'targan jome masjididir.

Shayx Shamsiddin Kulol mozori Shahrisabzdagi eng qadimiy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Shayx Shamsiddin Kulol Temur hamda uning otasi Muhammad Tarag'ayning piri komili edi. Oqsoq jahongirning diniy rahnamosi 1370-yilda vafot etdi. 1373-1374-yillarda shayx qabrining yaqinida, Dor us-saodat madrasasiga Temurning otasi Muhammad Tarag'ay dafn etilgan.

Olimlar mozor harobalarini o'rganib, mozor ikki qator ustunlarga to'sin tashlab usti yopilganligi hamda ular hanuzgacha eng qadimgi poydevorlarini saqlanganligini aytib o'tishgan. Shuningdek, bu yerda keyingi davrda chorsi qilib bino solinganligini ham ko'rish mumkin. Tahmonning o'rtasi tikkasiga o'yib chiqilgan. Mozorning asosiy kirish eshigi peshtoq shaklida chiroyli qilib ishlangan. Ajoyib naqshinkor jimjimador qilib o'yib gul solingan darvoza tavaqalarini ko'rib o'sha zamon mohir me'morlarining nodir nafis ishlariga ofarinlar o'qiysan kishi.

Dor ut-tillovat majmuasi. Majmua o'rta asrlar Shahrisabz markaziy maydonidan janub tarafda, markaziy bozor va "Chorsu" savdo majmuasidan uncha uzoq bo'lmagan maskanda joylashgan. Hozirgi ana shu guruh me'moriy obidalarining shartli nomini olgan "Dor ut-tillovat" majmuasi tuzish jihatdan katta kvadratni eslatadi va qariyb 500 kv.m umumiy maydoni egallagan. Majmua joylashgan maskan shahar yuzasi umumiy sathidan 2.25 metr baland. Bu yerda Amir Temur va uning avlodlari davrining o'ziga hos ziyorat-me'moriy yodgorliklari barpo etilgan. Majmuaning ayrim yodgorliklari o'zoning me'moriy tuzilish kompozitsiyasi jihatidan Samarqanddagi Shohizinda obidalarini esga soladi. Majmuaga janubdan Gumbazi Sayyidon maqbarasi taqalib turadi. G'arb tarafdan maqbaralar devorlariga pishiq g'ishtdan qurilgan toqsimon qabr usti inshootlari taqalib turgan. Ularning katta qismi buzilib ketgan. Avliyo, uning muxlislari, shuningdek Termiz sayyidlari qabrlari majmuaning qabr usti inshootlari majmuini tarkib toptirgan. Ana shu qabrlar hozirda yo'qolib ketgan, ammo ularning fotosuratlari saqlanib qolgan. XX asrning 70-80-yillarida o'tkazilgan arxeologiya va tarixiy tadqiqotlar asosida "Dor us-saodat" majmuadagi konussimon gumbazi bo'lgan baland inshoot Jahongir maqbarasi deb taxmin qilinadi.

Maqbaralar qarshisida "Ko'k gumbaz" degan ancha baland jome masjidi-Mirzo Ulug'bek (1394-1449) o'z otasi, Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo (1377-1447) sharafiga atab qurilgan majmuaning bosh diniy markazi joylashgan. Masjid tashqi devorlari, baland gumbazi gardishi va ichkarisini suls va kufiy xatlarida yozilgan, katta qismi qayta tiklangan bitiklar bezab turadi. Bu yerda boshqa bitiklar ham saqlanib qolgan. Masjid gumbazi gardishida mozaika g'ishtchalar -koshinlardan terib chiqilgan kufiy xatidagi bitiklar mavjud.

Uning o'rta qismida "Fath" surasining 1-3-oyatlari yozilgan. Masjid gumbazosti gardishi tepa qismida ko'k fonga uncha yirik bo'lmagan oq rangdagi harflar bilan suls xatiga Qur'oni karimdagi "Jum'a" surasi matnlari to'liq bitilgan. Bitik qisman ta'mirlangan. Masjid peshtoqi qanosi ham kufiy bannoiy uslubida yozilgan bitiklar bilan bezatilgan. Yonbosh va manglay devorlarda ular koshinlarning lojuvardlangan qisqa tomoni yordamida yozilgan.

Harflar to'q ko'k polosalari bo'lgan feruza rangda bo'lgan. Masjid peshtoqi ravog'i janubiy va ichki manglay devorlarida bitiklar parchalari saqlanib qolgan. O'ng manglay devordagi bitiklarni ta'mirlash -restavratsiya ishlari A.Vinogradov tomonidan 1949-1951-yillarda o'tkazilgan edi. Shuningdek, u matnning ayrim bo'shab qolgan joylarini qayta tiklashga ham urinib ko'rgan. Ana shu ishlar davomida matnning alohida-alohida bo'laklari noto'g'ri yig'ilgan. Bundan tashqari, ayrim bloklar yangidan yasalgan, buning natijasida

bitiklar yanada buzilgan edi. Masjid qurish sanasi sharqshunos A.Kun tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida aniqlangan edi. Uning yordamchisi Mirzo Abdurahmon, o'zi qoldirgan qoramalarga qaraganda, peshtoq ravog'i ichidagi bitikda Shohruh Mirzo ismini ham o'qigan. 1925-yil arxeolog V.Vyarkin chap yonbosh devordagi tarixiy matnda Ulug'bek ismini o'qigan edi. M. Masson esa bu masjid Mirzo Ulug'bek tomonidan otasi -Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo nomidan buyod etilgan deb ta'kidlagan.

Gumbazi Sayyidon maqbarasiga keladigan bo'lsak, u 1437-yillarda Amir Temur nevarasi Mirzo Ulug'bek farmoniga binoan barpo etilgan. Maqbara ichkarisi tabiiy ma'danli bo'yoqlar bilan chizilgan rang-barang naqshlar bilan bezatilgan. Xilxona bitiklari bo'lgan katta o'lchamdagi sag'ana toshlari saqlanib qolgan. Maqbara gumbazi va qadama koshinlardan ishlangan epigrafikasi 1975-yilda restavratsiya qilingan edi. 1996-yilda ravoq bilan birgalikda peshtoq toq ustunining janubiy qismi ham ta'mirlangan.

Xulosa: Shahrisabz shahri tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan XIV-XVI asrlarda eng ravnaq topgan davri sifatida qaraladi. Bu davrga kelib Shahrisabz hududida keng qamrovli qurilish ishlari amalga oshirildi. Amir Temur va Temuriylar davrida O'rta Osiyoning rivojlangan shaharlaridan biri bo'lgan. Bugun kunga kelib, Shahrisabz me'moriy obidalar ko'plab sayyohlar, olimlar va san'at ixlosmandlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. 2000-yilga kelib YuNESKO Jahon merosiga kiritildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.Choriyev, M.Ochilov "Qashqadaryo oblasti"-Toshkent-1974, 147-151
2. "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar Shahrisabz"-Toshkent-2016, 177-186
3. I.Karimov "Amir Temur-faxrimiz, g'ururimiz"-Toshkent 1998